



Jizzax davlat
Pedagogika
universiteti
TARIX FAKULTETI



TARIX JAM'YAT

JOURNAL 2023

No 5



HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

**2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o‘qitish metodikasi**

Bosh muharrir: Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,
t.f.n., dotsent.

Bosh muharrir Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.
o‘rinbosari:

Mas’ul kotib: Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

Dizayner va sahifalovchi:

Axmurodov D.Q

A'SOM AL-KUFIY VA UNING ILMIY ME'ROSI

Uralov Xayitboy Abdujabborovich

JDPU, Tarix Fakulteti Tarix yo'nalishi
“Umumiy tarix” kafedrasi o'qituvchisi

O'tashev Bekzod JDPU,

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Hozirgi davrgacha A'som al-Kufiy haqida juda ham kam ma'lumot uchraydi. Shunga ko'ra uning asarlari ham to'liq yetib kelmagan. Uning eng mashhur asarlari "Kitab at-tarix", "Kitob al-futuh" va "Kitab al-ma'luf" asarlari hisoblanadi. Aynan "Kitob al-futuh" asari shialik nuqtayi nazaridan yozilgan asar hisoblanadi. Bu asarda Harzati Ali va uning hayoti va faoliyati haqida juda ko'plab ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu asarning mavjudligi ko'p vaqtlardan beri ma'lum bo'lgan. Hoji Xalifaning "Lug‘at"ida bu haqida qisqa lekin nisbatan xato ma'lumot keltirilgan. Ibn A'som al-Kufiyning ismi birinchi marotaba Abu Nasr Ahmad ibn Ahmad ibn Nasr al-Buxoriyning hijriy 477-yilda yozilgan "Tog‘ al-qisas" asarida esga olib o'tilgan va faqatgina asarning fors tiliga tarjimasidan so'ng asar va uning muallifi keng qayd qilina boshlangan. Bugungi kunda Gota kutubxonasida asarning arabcha asl qo'lyozmasining 129 sahifadan iborat faqatgina birinchi jildi saqlanadi. Brokkelman asarga quyidagicha ta'rif beradi: "Ibn A'somning "Kitob al-futuh" asari Shialik nuqtai nazaridan yozilgan novellaga o'xshaydi".

Asar shialik ruhida yozilgan tarixiy novella emas, balki muhim manba sifatida faqatgina 1925-yilda asarning ikkinchi va uchinchi jiddlari Topkapi saroyida topilganidan so'ng tan olingan.

Kalit so'zlar: Yoqut al-Hamaviy, "Nigoriston", sunniylik, shialik, al-Kindiy, Topkapi saroyi, Gota, kufiylik, Karbalo voqeasi, hazrati Ali, "Futuh", soso niylar, "Kitob al-futuh", Kufa, Balazuriy, Ya'qubiy, Xondamir, Tabariy, "Kashf az-zunun", Armaniston, Xuroson, Muhammad al-Mustavfiy, Hoji Halifa, Abbosiylar, Ubaydulloh ibn Ziyod, Buxoro, Ahmad III kutubxonasi, Markaziy Osiyo, Xorazm.

Abu Muhammad Ahmad bin Muhammad bin Ali bin A'som al-Kufiy al-Axboriy kam o'rganilgan arab tarixchilaridan biridir. Muallifning yashab o'tgan yillari haqida ma'lumotlar deyarli uchramaydi. Faqatgina uning vafoti (hijriy 314-yil) milodiy 926-yilda bo'lganligi aytib o'tilgan. Bizgacha uning faqat "Kitab al-futuh" asari yetib kelgan. Yoqut al-Hamaviyning "Mo'jam al-Udabo" asarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda uning "Kitab at-tarix" va "Kitab al-ma'luf" deb nomlangan boshqa asarlari ham bo'lgan.

Yoqt al-Hamaviy o‘z asarida muallif haqida ma’lumot berishda davom etib, uning shiya mazhabiga mansub ekanligini qayd etadi va uni zaif hadis sohiblari qatoriga kiritadi. Shuningdek, “Mo‘jam al-Udabo” asarida Ahmad al-Bayhaqiy qalamiga mansub Ibn A’som al-Kufiyga ta’rif berilgan she’riy misra ham keltirib o‘tilgan.

Ibn A’som al-Kufiyning “Kitob al-futuh” asari hali olimlar tomonidan yetarlicha tadqiq qilinmagan. Asarning Xazarlar tarixiga oid qismi D.M.Danlop⁷, D.Lyudvig⁸, M.I.Artamanov tomonidan o‘rganib chiqilgan. Z.M.Buniyatov ham Ozorbayjon tarixiga oid ma’lumotlarni rus tiliga tarjima qilgan.

Ushbu asarning mavjudligi ko‘p vaqtlardan beri ma’lum bo‘lgan. Hoji Xalifaning “Lug‘at”ida bu haqida qisqa lekin nisbatan xato ma’lumot keltirilgan. Ousley o‘zining “Sharqiy kollektsiyalar” (Oriental collections, 1797) kitobida Ibn As’om al-Kufiyning asaridan ayrim qismlarni nashr qilgan.

Abu Muhammad ibn A’som al-Kufiy hijriy III asrda yashagani va Tabariy, Balazuriy va Ya’qubiy kabi arab tarixchilariga zamondosh bo‘lganiga qaramay, bu tarixchilar kabi o‘z mavqeiga ega bo‘lman va ko‘pchilik tomonidan esdan chiqarilgan va faqatgina hijriy VI asrga kelib ushbu muallifning nomi e’tirof etila boshlangan.

Ibn A’som al-Kufiyning ismi birinchi marotaba Abu Nasr Ahmad ibn Ahmad ibn Nasr al-Buxoriyning hijriy 477-yilda yozilgan “Tog‘ al-qisas” asarida esga olib o‘tilgan va faqatgina asarning fors tiliga tarjimasidan so‘ng asar va uning muallifi keng qayd qilina boshlangan. Tarjima Muhammad ibn Ahmad al-Mustavfiy al-Haraviy tomonidan hijriy 596-sanada Xorazm podshohlaridan birining iltimosiga ko‘ra amalga oshirilgan va Bodlein kutubxonasida saqlanuvchi qo‘lyozmadan ma’lum bo‘lishicha Muhammad bin Ahmad bin Ali Bakir al-Katib al-Maboronobodiy tomonidan nihoyasiga yetkazilgan. Muhammad al-Mustavfiy tarjimaning kirish qismida muallifning nomi va kitobning ahamiyati haqidagi ayrim ma’lumotlarni keltirib o‘tadi, lekin Ibn A’somning hayoti, kimning buyrug‘i bilan bu tarjimani amalga oshirgani haqida hech qanday axborot bermaydi. Kozimbek Peterburgda saqlanayotgan asarning qo‘lyozmasiga asoslangan holda ushbu tarjima Muhammad Xorazmshohning buyrug‘iga binoan bo‘lganini ta’kidlab o‘tadi. Shu tarjima tufayli muallifning nomi odamlarga ma’lum bo‘ldi. Lekin shunda ham ushbu asar u qadar shuhrat qozonmadni. Biz muallifning nomini hijriy X asrda bitilgan asarlarda uchratishimiz mumkin. Birinchi bo‘lib Xondamir o‘zining “Habib us-siyar” asarida, keyin esa “Nigoriston” asarida ibn A’som al-Kufiyning asarini Tabariyning asaridan keyingi o‘rinda turuvchi ikkinchi manba sifatida qayd qilib

⁷ Dunlop D.M. The history of the Jewish Khazars. – P.: 1954. – 170 p.

⁸ Lyudvig D. Struktur und gesellschaft des Chasaren-ReichesLicht den Quellen. – M.: 1982. – 215 s.

o‘tadi. Hoji Halifa o‘zining “Kashf az-zunun” asarida ham muallifning nomini Muhammad bin Ali tarzida xato keltirgan, lekin mavjud bo‘lgan ma’lumotlardan Hoji Halifa asarning Topkapida topilgan asl arabcha nusxasini ko‘rgan degan tahminga egamiz.

1881 yilda Germaniyadagi Gota kutubxonasida asarning birinchi qismi topilgan. Bu vaqtgacha kitobning faqatgina forschadagi tarjimasi mavjud va ma’lum bo‘lgan. Asarning asl arabcha nusxasi esa Istanbuldagi Topkapi Saroyidagi kutubxonadan (Ahmad III kutubxonasi, № 2956, ikkita qism) topilgan. Kitobning birinchi qismi “Al-juz’ul avvalu min kitabil futuh” deb nomlangan. Arablarning Markaziy Osiyoga olib borgan yurishlari esa ikkinchi qismda bayon qilingan.

Asarning III va IV asrlarda fors va arab tarixchiligidagi olib borilgan qiyosiy tahlil natijalaridan Ibn A’som hijriy III-IV asrlarga taaluqli tarixchi ekanligi ma’lum bo‘ladi. Ya’ni u Tabariy, Balazuriy va Ya’qubiy kabi arab tarixchilar bilan zamondosh bo‘lgan. Shunga qaramay, uning asari ko‘p jihatlari bilan Tabariyning tarixidan farqlanadi. Lekin Qutayba ibn Muslimning Xorazm va Samarcandga olib borgan yurishlari bayon etilgan qismlari Bal’amiyning tarix kitobi va Tabariyning turkiy tildagi tarjimasi o‘rtasidagi o‘xshashliklarga duch kelish mumkin. Lekin Ibn A’somning asarida boshqa hech qaysi asarda uchramaydigan ma’lumotlar mavjud.

Lavrense Konrad ham Ibn A’som shaxsiyati haqida o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan. “Keyingi davr yozuvchilari uchun Ibn A’som deyarli noma’lum bo‘lgan. Ya’qut (vaf. 626/1229) u haqda haqiqiy ma’lumotga ega bo‘lgan yagona o‘rtasidagi tarixchisidir. Lekin u ham muallifning tug‘ilish yoki vafoti sanasi haqida ma’lumot keltirmaydi. Uning shialikka mansub bo‘lgani va rjal as-sanad (hadis rivoyat qiluvchilar qatorida) bo‘lganini keltirib o‘tadi. Ibn Tovus (vaf. 764/1266) uning ismi va asaridan ma’lumotlarni iqtibos qilib o‘tgan, lekin Ibn A’som bilan shaxsan tanish bo‘limgan. As-Safadiy (vaf. 764/1363) va Ibn Hajar (vaf. 852/1449) asarlarida ham muallif haqida ma’lumotlar keladi. Lekin ularning asarlaridagi ma’lumotlar Ya’qut Hamaviyning ma’lumotlariga tayangan⁹.

Zamonaviy tarixchi olimlar Ibn A’samning vafoti sanasini h. 314/ m. 926-927 deb ko‘rsatishadi. Bu sana nafaqat asarning Haydaroboddagi nashrining bosh sahifasida, balki bir qancha olimlarning, jumladan, Riu, Griffini, Storey, Masse, Al-Amin, Gehroniy, Kahlen, Tog‘an, Ursula, Sezginning izlanishlarida ham shu sana berilgan. Brokkelman o‘z asarida uning vafoti sanasini keltirib, Ibn A’som haqida biz ega bo‘lgan yagona ma’lumotni shu yerda qayd etib o‘tgan bo‘lsa, Masse u Tabariy bilan zamondosh bo‘lgan degan fikrni bildirib o‘tadi.

⁹ Conrad L.I. Ibn Atham and his history. – H.: University of Hamburg, 2015. – P. 56.

Boshqa bir turk olimi Zakiy Validiy Tog‘an ham uning hayoti haqida ma’lumot berib shunday yozadi: “Ibn A’som al-Kufiyning hayoti biz uchun hali ham mavhumligicha qolmoqda. Xattoki, uning ismi va nasabi haqida ham ma’lumotlar deyarli uchramaydi”. S.Brokkelmanning Muhammad al-Haraviy tomonidan amalga oshirilgan asarning forscha tarjimasi orqali uning vafoti sanasi deb ko‘rsatgan 304h./926m. ham mutlaqo xato¹⁰. Vaholanki, Haraviy asarning tugatilish sanasini ko‘rsatgan xolos. Ibn A’sam asarining ikkala jildini o‘qib chiqqan Ya’qut al-Hamaviyning Ibn A’som “Kitob at-tarix” asarida Abbosiylar halifasi Ma’mun(813-833 mil.) dan to al-Muqtadir davrigacha bo‘lgan voqealarni bayon qiladi deya bildirilgan fikrlari ham haqiqatdan yiroq¹¹.

Muallif tarjimai holi haqidagi eng ishonchli ma’lumotlarni uning o‘z asarlaridan topish mumkin. Asarda uning ismi Abu Muhammad Ahmad ibn A’som al-Kufiy tarzida berilgan. Muhammad ibn Ahmad al-Haraviyning forskaga tarjimasida ham huddi shu ism keltirilgan bo‘lib, faqatgina Abu Muhammad kunyasi tushib qoldirilgan. “Futuh” asarining qo‘lyozmasidagi birinchi qismning so‘nggida uning nisbasi al-Kindiy deb keltirilgan. Ya’qut o‘zining “Mu’jam al-udabo” asarida uning ismini Ahmad ibn A’som al-Kufiy Abu Muhammad al-Axboriy tarzida eslab o‘tadi.

Gota kutubxonasida asarning arabcha asl qo‘lyozmasining 129 sahifadan iborat faqatgina birinchi jildi saqlanadi. Brokkelman asarga quyidagicha ta’rif beradi: “Ibn A’somning “Kitob al-futuh” asari Shialik nuqtai nazardan yozilgan novellaga o‘xshaydi”.

Henri Masse ham asar haqida fikr bildirib, asarning “Forsiy adabiyot”da o‘ziga xos ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tadi. Qizikarlisi u Gota kutubxonasida saqlanayotgan asarning qo‘lyozmasi haqida fikr bildirib asar forschadan arab tiliga tarjima qilingan degan fikrni aytadi va shuningdek, muallifning shia bo‘lganini ham qo‘shimcha qiladi¹².

Asar shialik ruhida yozilgan tarixiy novella emas, balki muhim manba sifatida faqatgina asarning ikkinchi va uchinchi jildlari 1925 yilda Topkapi saroyidan topilgandan so‘ng tan olindi. Asarning shialik rihida yozilgani quyidagilarda ko‘rinadi: “Muallif ko‘p hollarda Ali va uning yonidagi sahobalarini kufiylikning og‘zaki an’anasiga ko‘ra tasvirlaydi. U huddi shialar an’anasiga ko‘ra Muhammad payg‘ambarning nevarasi Husaynning Kufa shahrida Yazid ismli shaxs tomonidan o‘ldirilishini bashorat qilgan edi deya keltirib o‘tadi. Lekin bu kabi fikrlar asarga keyinchalik shialar tomonidan kiritib qo‘yilgan degan tahminlar ham mavjud. Ibn

¹⁰ Conrad L.I. Ibn Atham and his history. – H.: University of Hamburg, 2015. – P. 90.

¹¹ Conrad L.I. Ibn Atham and his history. – H.: University of Hamburg, 2015. – P. 91.

¹² Massee H. Melanges Gaud froj Demembynes. – C.: 1935. – P. 85.

A'som o'z asarida ba'zi bir epik afsonalardan ham foydalanganining guvohi bo'linadi. Bu ayniqsa muallifning Muoviya xalifaligi davridagi voqealarni bayon qilinishida ko'rindi. Bal'amiy ham o'z asarida shu kabi epik manbalardan foydalangan.

Arab adabiyotining ensiklopediyasida esa quyidagi ma'lumotlarga duch kelish mumkin: "Abu Muhammad Ahmad ibn A'som al-Kufiy iroqlik axboriylardan bo'lgan. Uning vafoti sanasi h.314/m.926-7 deb ko'rsatilishi qadimgi sharqshunoslarning yo'l qo'ygan xatolarining natijasidir. Ibn A'som shialarning oltinchi imomi hisoblanmish Ja'far as-Sodiqning (vaf.148h./765 m.) toliblaridan birining o'g'li bo'lgan. Shoir va xatib sifatida shuhrat topgan. Asarning birinchi qismi Karbalo voqeasi (61/680) davrigacha bu Ma'munning huzuriga keltirilayotgan paytda uning ukasi va raqibi al-Aminning noto'g'ri buyrug'iga asosan rad etilgan edi. Asarning aynan shu qismi al-Mustavfiy tomonidan 596/1199-1200 yillarda fors tiliga tarjima qilingan. Ibn A'som biroz muddat o'tib yana asarini yozishni davom ettirib, unda Xorun ar-Rashidning xalifalik yillarigacha (786-809 yillar) bo'lgan voqealarni jamlaydi. Asar keyinchalik ikkita mashhur sunniy olimlar tomonidan nihoyasiga yetkaziladi va al-Muqtadirning qatl etilishi voqeasigacha bo'lgan yillarni o'zida qamrab oladi¹³.

Zakiy Validiyning keltirishicha, asarning birinchi qismi 1194/1780 yilda va qolgan qismlari 872/1462 yillarda ko'chirilgan. Lekin asarning ko'chirilishida kotibning ko'p xatolarga yo'l qo'yganini ko'rish mumkin. Masalan, kotib bir joyda "Tukxariston" va boshqa joyda huddi shu joy nomini "Tabariston" sifatida keltiradi.

Asarning birinchi va ikkinchi jildlarining tanqidiy matnini tayyorlashning deyarli imkoniy yo'q. Shunday bo'lsada, Zakiy Validiy asardagi e'tiborga molik voqealarni keltirib o'tadi:

"Said ibn Usmonning Buxoro va Samarcandga yurish qilgan yillari sanasi Tabariyning bergen ma'lumotlaridan farqli ravishda 56 hijriy yil deb ko'rsatilgan. Shuningdek, Ibn A'som Ubaydulloh ibn Ziyod Buxoroda turklarning hukmdorini ustidan hijriy 54-yilda g'alaba qilganini va uning beva qolgan ayolni "xiyl-xatun" tarzida keltirgan bo'lsa, Tabariyda "qiyg' xatun" shaklida berilgan¹⁴.

Ibn A'somning asari muhim tarixiy voqealar haqida xabar beradi, lekin boshqa jihatdan olib qaralsa Abbosiylar davrida tarixnavislik soxasiga bu kabi qissalarning osonlikcha kirib borgani va o'ziga xos o'rin egallaganini ham ko'rsatadi. Asarda IX-X asrlarda tarixnavislikda shuhrat qozongan olimlar foydalangan ma'lumotlarni ham uchratish mumkin¹⁵.

¹³ Meisami J.S., Starkey P. Encyclopedia of Arabic literature. Vol. I. – L.: Routledge, 1998. – P. 314.

¹⁴ Togan Z.V. Ibn A'tham al-Kufi. – L.: Islamic culture, 1970. – P. 252.

¹⁵ Meisami J.S., Starkey P. Encyclopedia of Arabic literature. Vol. I. – L.: Routledge, 1998. – P. 314.

Yana bir manbada esa Ibn A'som al-Kufiyning asari arablarning tarixini yoritishda muhim manba sifatida xizmat qilishi aytib o'tilgan. Muallifning qayd etishicha, u o'sha davrda mashhur hadis roviylari al-Madaoiniy, al-Voqidiy, az-Zuhriy, Abu Mihnaf va ibn al-Qalbiylarning hadislarini o'zining tarixiy asarida jamlagan va bir necha joylarda ularning ismlarini zikr qilib ketgan. To'g'ri, Balazuriy o'zining "Futuh al-buldon" asarida arab qo'shinlarining Sosoniylarg'a qarshi kurashi haqida yetarlicha to'liq ma'lumotlarni keltiradi. Ibn A'som esa arablarning bosib olgan yerlari, xususan, Armaniston va Xuroson haqida nisbatan to'liq ma'lumotlarni berib o'tadi. Balazuriy ko'proq istilolar tarixiga e'tibor qaratgan. Ibn A'som voqealarni to'liqroq yoritishga harakat qilgan.

Tarixchining ushbu asarini to'liq o'rghanib chiqish o'lkamiz tarixinining ochilmagan qirralarini ochishga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, manbada Balazuriy, Ya'qubiy va Tabariyning tarix kitoblarida keltirilgan ma'lumotlardan boshqa Markaziy Osiyo tarixiga oid yangiliklarni uchratish mumkin. Bal'amiy ham Tabariyning tarixiy asarlarini tarjima qilishda Ibn A'som al-Kufiyning kitobidan keng foydalangan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Ibn A'som al-Kufiyning tavalludi sanasi ma'lum emas, faqatgina vafoti sanasi h. 314/m.926 yil ekanligi manbalarda qayd etilgan. Bizgacha muallifning "Kitob al-futuh" deb nomlangan asarlari ham bo'lganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Ibn A'som shialarning oltinchi imomi hisoblanmish Ja'far as-Sodiqning (vaf. 148h./ 765 m.) toliblaridan birining o'g'li bo'lganligi manbalarda qayd etib o'tilgan. Asar shialik ruhida yozilgan tarixiy novella emas, balki muhim manba sifatida faqatgina 1925-yilda asarning ikkinchi va uchinchi jiddlari Topkapi saroyida topilganidan so'ng tan olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Togan Z.V. Ibn A'tham al-Kufi. – L.: Islamic culture, 1970.
2. Meisami J.S., Starkey P. Encyclopedia of Arabic literature. Vol. I. – L.: Routledge, 1998.
3. Conrad L.I. Ibn Atham and his history. – H.: University of Hamburg, 2015.
4. Massee H. Melanges Gaud froy Demembynes. – C.: 1935.
5. Dunlop D.M. The history of the Jewish Khazars. – P.: 1954.
6. Lyudvig D. Struktur und gesselchaft des Chasaren-ReichesLicht den Quellen. – M.: 1982.